

## JADIDLAR G'YOYASI –YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI BILAN HAR TOMONLAMA UYG'UN VA HAMOHANG

**Shodiyeva Aziza Zokir qizi,**  
*NavDPI, Tarix fakulteti "Milliy g'oya,  
 ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi"  
 yo'nalishi 3-, D"guruh talabasi  
 Ilmiy rahbar t.f.f.d.(PhD), dotsent  
 Daminov Nabijon Abduolimovich*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada buyuk ma'rifatparvarlarimizning xalqimizni uyg'oqlikka undashga qaratilgan harakatlari, ilm-fan, maorif va matbuot orqali jamoa tafakkur tarzini o'zgartirishga, aholini savodli qilishga qaratilgan keng islohotlarni amalga oshirganganliklari hamda bugungi kundagi islohotlarimizda ma'rifatparvarlarimiz qarashlarini inobatga olgan holda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalashda jadidlar o'gitlaridan foydalanilayotgani kabi masalalar aks ettirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Jadid, ma'rifatparvarlik, tarbiya, maorif, ilm-fan.*

*"Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy"*

*Shavkat Mirziyoyev*

Mushtarak tariximizning yorqin sahifalarini tashkil etadigan ma'rifatparvar ajdodlarimizning ibratli faoliyatini, ularning o'z qimmati va ahamiyatini hamon yo'qotmasdan kelayotgan boy merosini hamkor davlatlar hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, taniqli xorijiy olimlar bilan birgalikda teran tadqiq va targ'ib etish bizning vazifamizdir<sup>27</sup>.

Taraqqiyparvar ajdodlarimizning ilg'or g'oya va qarashlarini tadqiq etish va tizimlashtirish, Turkiston jadidlarining milliy davlatchilik rivojidagi o'rni va ahamiyatini o'rganish, XX asrning birinchi choragida ular tomonidan barpo etilgan davlat tuzilmalarining qonunchilik bazasini tahlil qilish, dunyoviy, huquqiy, ijtimoiy va demokratik jamiyat qurishga qaratilgan faoliyatiga tarixiy baho berish, Yangi O'zbekiston va Uchinchi Renessansni bunyod etishda ushbu merosning mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilishi bilan bog'liq masalalar bugungi kunda mamlakatimizda jadidchilik harakati namoyondalarining ilmiy

<sup>27</sup> <https://daryo.uz/2023/12/11/prezidentning-jadidlar-milliy-ozlik-istiqlol-va-davlatchilik-goyalari-mavzusidagi-xalqaro-konferensiya-ishtiroychilariga-tabrigi-elon-qilindi>

merosini o'rganish va tahlil qilishga ,ularning ibratli fikr va qarashlarini hayotimizga tatbiq qilishga undamoqda.

“Ma'rifatparvar ajdodlarimizning merosi bugun biz qurayotgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyati uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi tabiiy.Bu kimgadir yoqadimi yoki yo'qmi, xalqimiz jadid bobolarimiz ko'rsatib bergen yo'ldan og'ishmay borishi kerak. Chunki ularning g'oya va dasturlari yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasi bilan har tomonlama uyg'un va hamohangdir”,<sup>28</sup> — deydi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Barchamizga ayonki, “Tilda, fikrda, ishda birlik” degan ezgu g'oya bilan maydonga chiqqan jadid bobolarimiz xalqlarimizni jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, ularni g'aflat botqog'idan qutqarishning asosiy yo'li – bilim va ma'rifatda, dunyoviy taraqqiyotni egallashda, deb bildilar. Ular shu yo'lda fidoyilik ko'rsatib, yangi usul maktablari, teatr va kutubxonalar, nashriyotlar ochadilar. Jamiyat a'zolarining dunyoqarashi va turmush tarzini o'zgartirish, ular ong-u tafakkurini ilm egallash va yangi zamonaviy fanlarni o'qitish maqsadida ,maorif va matbuot tizimiga alohida e'tibor qaratib, gazeta va jurnallarni nashr ettiradilar.Yoshlarni Germaniya, Turkiya kabi ilg'or davlatlarga o'qishga yuboradilar.Shu bilan birga,maktab,maorif,matbuot,teatr, davlat boshqaruvi,sud-huquq, moliya, soliq tizimlari, yer masalalarini tadrijiy asosda tubdan isloq qilish uchun g'oyaviy va amaliy harakatlar olib bordilar. Bir so'z bilan aytganda, ular milliy uyg'onish, milliy taraqqiyot,milliy uyg'onish g'oyasini ro'yobga chiqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etadilar.

“Bugungi kunda Yangi O'zbekistonda inson qadri ulug'lanadigan adolatli, erkin va obod jamiyat, xalqparvar davlat, farovon hayot barpo etishga qaratilgan islohotlarimiz jadid bobolarimizning ezgu g'oya va dasturlariga har jihatdan uyg'un va hamohangdir.”<sup>29</sup>

“Umuman biz jadidchilik harakati,ma'rifatparvar bobolarimiz merosini chuqur o'rganishimiz kerak.Bu ma'nnaviy xazinani qancha ko'p o'rgansak,bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko'p savollarga to'g'ri javob topamiz.Bu bebaho boylikni qancha faol targ'ib etsak,xalqimiz,ayniqsa,yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”<sup>30</sup>

Shu bois, xalqimiz ozodligi va Vatanimiz ravnaqi yo'lida aziz jonlarini fido qilgan ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va

<sup>28</sup> <https://daryo.uz/2023/12/22/shavkat-mirziyoyev-jadidlar-goyasi-yangi-ozbekiston-strategiyasi-bilan-har-tomonlama-uygun-va-hamohang>

<sup>29</sup> Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishidagi nutqida

<sup>30</sup> Jadidlar,Mahmudxo'ja Behbudiy,Toshkent:Yoshlar nashriyot uyi,2022

merosini yangicha tafakkur asosida o‘rganish hamda targ‘ib etishga alohida e’tibor berilmoqda.

Yurtimizda ushbu yo‘nalishda muhim farmon va qarorlar qabul qilinib, har yili 31-avgust – Qatag‘on qurbanlarini yod etish kuni sifatida keng nishonlanmoqda.“Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmuasi va jamoat fondi, Qatag‘on qurbanlari xotirasi davlat muzeyi, uning Qoraqalpog‘iston Respublikasi va barcha viloyatlarda hududiy bo‘limlari faoliyat olib bormoqda.Ana shu ishlarimizning mantiqiy davomi sifatida Buxoro shahridagi tarixiy maskanda Jadidchilik tarixi muzeyi tashkil etilmoqda.Bundan tashqari, “Jadidlar” — jadidlar haqidagi sakkiz jildli kitoblar to‘plami ham chop etildi,unda sakkiz nafar jadidlar hayoti va ijodiga bag‘ishlangan risolalar :G‘ulom Zafariy, Abdulhamid Cho‘lpon, Is’hoqxon To‘ra Ibrat, Abdurauf Fitrat,Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Munavvarqori qori Abdurashidxonov va Mahmudxo‘ja Behbudiy haqidagi risolalarjamlangan.To‘plam 2022-yilda Yoshlar nashriyot uyida yumshoq muqovada, lotin yozuvida cho‘ntak kitobi sifatida nashr qilingan. Loyihaga Yoshlar ishlari agentligi direktori Alisher Sa’dullayev rahbarlik qilgan<sup>31</sup>.

Badiiy va hujjatli filmlar, ko‘rsatuvalar tayyorlanib, namoyish qilinmoqda. Xalqaro konferensiylar, ko‘rgazmalar va davra suhbatlari, xotira kechalari, seminarlar muntazam o‘tkazilmoqda.Atoqli ma’rifatparvarlarimiz davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanmoqda. Ularning aziz nomlari bilan ataladigan yodgorlik majmualari, ta’lim muassasalari, muzeylar, bog‘ va xiyobonlar barpo etilmoqda.

Keyingi yillarda O‘zbekiston Oliy sudi tomonidan 1030 dan ziyod mustabid tuzum qatag‘oniga uchragan vatandoshlarimiz nomi oqlangani tarixiy adolatni tiklash yo‘lidagi yangi qadam bo‘ldi.

Ayni vaqtida, yurtimizda har yili avgust oyini “Qatag‘on qurbanlarini yod etish oyi” sifatida o‘tkazish, fidoyi vatandoshlarimiz va ularning avlodlari yashagan va yashayotgan xonadonlarga yodgorlik lavhalari o‘rnatish, ularning vorislari hamda yaqin kishilariga hurmat-e’tibor ko‘rsatish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilanmoqda.Mahalla idoralarida “Qatag‘on qurbanlari xotirasi burchaklari” va “Mahalla xotira kitoblari”ni tashkil etish, har yili kamida 100 nafar qatag‘on qurboni hamda jadid bobolarimiz hayoti va faoliyatini aks ettiradigan to‘plam tayyorlash rejalashtirilgan.Ushbu muhim mavzuda arxiv hujjatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun maqsadli grantlar e’lon qilish, yangi badiiy va publitsistik asarlar yaratish, xorijiy ilm-fan markazlari, fondlar va muzeylar, kutubxonalar bilan hamkorlikni rivojlantirish chorralari ko‘rilmoqda.

<sup>31</sup> <https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadidlar>

Buyuk ma'rifatparvar bobolarimiz tomonidan olg'a surilgan g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy-ma'rifiy va huquqiy-axloqiy qarashlar, turli millat va elatlar o'rtasida bag'rikenglik va hamjihatlik tamoyillarini qaror toptirish bilan birga, milliy manfaatlarni himoya qilishga qaratilgan intilishlar hozirgi murakkab va tahlikali zamonda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasidir. Ularning hayoti va jasorati bugungi tinch va osoyishta kunlarga osonlik bilan erishilmaganini eslatib, milliy istiqlolimizni, jonajon Vatanimizni ko'z qorachig'iday asrashga doimo da'vat etib turadi.

Jadidlar millat tafakkurini yuksaltirish harakatida bo'lib, milliy ozodlik g'oyalarni ilg'or targ'ib etdilar. Ular xalqimizni ozod va hur bo'lishga da'vat qildi. Yurti ozod bo'lishi, mamlakat farovon bo'lishi uchun tinmay harakatda bo'ldilar. Jadid ziyyolilari uchun yangi usuldagagi maktablarni isloh etish, badiiy adabiyotni yangi ko'rinishga solish, teatr sahnasidan ibratxona o'rnida foydalanish naqadar muhim bo'lsa, milliy matbuot tashkili va taraqqiysi ham shu darajada ahamiyatli edi. Samarqandlik jadid Hoji Muin ta'kidlaydi: "Matbuot bir millatni uyg'otish uchun birinchi omil bo'lg'onidek, uning tarixi ham "uyg'onish davri" tarixining muhim bir bo'lagi sanaladur". Darhaqiqat, matbuot o'zbek jadidchilik davri tarixida juda muhim o'rin tutadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev Toshkentda otkazilgan "Jadidlar: milliy o'zlik, istiqlol va davlatchilik g'oyalari" mavzusidagi konferensiyagi nutqidan
2. Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi yig'ilishidagi nutqida
3. Jadidlar, Mahmudxo'ja Behbudiy, Toshkent Yoshlar nashriyot uyi, 2022
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Jadidlar>